

SHAHARLARNING IJTIMOYIY MUAMMOLARI FARG‘ONA VILOYATI TOSHLOQ TUMANI MISOLIDA**Xoshimova Mohinurxon Baxtiyor qizi**

Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrası I kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada, shaharlarning ijtimoiy muammolari Farg‘ona viloyati hududidagi Toshloq tumani misolida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida urbanizatsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelayotgan asosiy ijtimoiy muammolar ya'ni ishsizlik, migratsiya, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ekologik muammolar hamda aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi.

Kalit so'zlari

Shaharlarning ijtimoiy muammolari, urbanizatsiya, ishsizlik, migratsiya, ijtimoiy infratuzilma, ekologik muammolar, aholi turmush darajasi, ijtimoiy siyosat, Farg‘ona viloyati, Toshloq tumani.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqiyosida urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi shahar hududlarining ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jihatdan keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Aholining shahar hududlarida yashashga intilishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq urbanizatsiya jarayoni bilan bir qatorda turli ijtimoiy muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, aholining bandligi, ijtimoiy tengsizlik, migratsiya, uy-joy masalasi, ekologik muammolar hamda ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi zamonaviy shaharlarning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shahar muhitida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash hamda samarali yechimlar ishlab chiqish ijtimoiy fanlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy ish sohasida shahar aholisi duch kelayotgan muammolarni o'rganish va ularga kompleks yondashuv asosida yordam ko'rsatish dolzarb masalalardan biridir. Jamiyat va shahar taraqqiyoti masalasi qadimdan mutafakkirlar va olimlarning e'tiborida bo'lgan. Sharq allomalari jamiyat rivojining asosiy omillari sifatida ijtimoiy adolat, hamkorlik va inson farovonligini ta'minlash g'oyalarini ilgari surganlar. Masalan, **Abu Nasr Farobiy** o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyat taraqqiyoti insonlarning o'zaro hamkorligi va adolatli boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun har bir insonning ehtiyojlari inobatga olinishi va ijtimoiy muvozanat ta'minlanishi zarur. Buyuk tabib va faylasuf **Ibn Sino** ham o'z asarlarida jamiyat farovonligini ta'minlashda inson salomatligi, ijtimoiy muhit va davlat boshqaruvining muhim rol o'ynashini qayd etadi. Shuningdek, **Alisher Navoiy** o'zining ijtimoiy qarashlarida adolatli jamiyat qurish, yordamga muhtoj insonlarga yordam berish va insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlagan. Qadimgi G'arb falsafasida ham jamiyat va shahar hayotiga oid masalalar muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, qadimgi yunon faylasuflari shahar-davlat (polis) hayotini, jamiyatdagi tartib va ijtimoiy muammolarni chuqur tahlil qilganlar. Mashhur yunon faylasufi **Platon** jamiyat tuzilishi va adolatli davlat masalalarini o'zining asarlarida batafsil tahlil qiladi. Uning fikricha, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ko'pincha boshqaruvning adolatsizligi, insonlarning o'z vazifalarini bajarmasligi va ijtimoiy tartibning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Platon adolatli jamiyatni barpo etish uchun har bir inson o'z qobiliyatiga mos faoliyat bilan shug'ullanishi kerakligini ta'kidlaydi. **Aristotel** esa jamiyat va davlatni inson hayotining ajiralmas qismi sifatida ko'rsatib



o'tadi. Uning ta'kidlashicha, jamiyat barqaror rivojlanishi uchun adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda ham shahar muhitida yuzaga keladigan muammolarni o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ham urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi natijasida shahar hududlarida turli ijtimoiy muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolarni hududiy kesimda o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ijtimoiy ish faoliyati orqali samarali yechimlar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Toshloq shahri misolida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni o'rganish ushbu mavzuning ahamiyatini yanada oshiradi.

Asosiy qisim

Avvalo shuni aytib o'tish o'rinliki, shaharlarning tarixi juda uzoq. Biroq bu tarix insoniyat tarixidan qisqa bo'lib, bu davr jamiyat tarixiga mos keladi. Uni bir necha tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin, har bir davr o'zining shahar hosil qilish omillari, shaharlar infratuzilmasi, aholi soni, aholining ijtimoiy muammolari, shaharlarning qurilish uslublari, bajargan vazifalarga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

1. Qadimgi shaharlar (eramizning V asrigacha). Umumiy olganda, bu davrda shaharlarning vujudga kelishini ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'laydilar. Ma'lumki, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikning chorvachiligidan ajralib chiqishidir. Shaharlar, ijtimoiy mehnat taqsimotining navbatdagi bosqichi, ya'ni dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi natijasida paydo bo'lgan. Ushbu kasibdagi kishilar, bevosita qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydilar va ular har xil mehnat qurollari ishlab chiqarish hamda Tovar ayriboshlash vazifasini bajargan, qulay joyda o'rnatilgan aholi punktlarida yashaganlar. Keyinchalik bunday joylar "shahar" deb atalgan¹.

2. O'rta asr shaharlari (VI-XVI asrlar). Feodalizmda shaharlar rivojlanishi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi, yerdan foydalanish bilan (feod-yer) bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashib, shaharlarning savdo dengizbo'yi savdosi va harbiy strategik ahamiyati ortdi, ulkan katta hududlarning siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy hamda savdo markazlari funksiyasini bajargan. Natijada Parij, Moskva, Venetsiya, Modrid, London, Dehli, Guanchjou, Agra shaharlari bu davrning yirik shaharlariga aylangan. Buyuk geografik kashfiyotlar dengizbo'yi shaharlarning rivojlanishini tezlashtirgan. Yevrpaning eng yirik shaharlarida 200-500 minggacha aholi yashagan bo'lsa, Osiyoda esa aholi ancha ko'p bo'lgan ya'ni 1-2 mln, gacha bo'lgan².

3. Ishlab chiqarish shaharlari (XVII-XX asrlarning birinchi yarimi). Mazkur davrda shaharlarning shakllanish va jadal taraqqiy etishining asosini mashinalashgan sanoat tashkil etadi. Ijtimoiy va geografik mehnat taqsimoti takomillashib, ko'plab aholi qishloqlardan shaharlarga ko'chib kela boshlaydi. Shaharlar aholi va ishlab chiqarish mujassamlashgan yirik markazlarga aylanadi. Dunyodagi eng birinchi sanoat shahri Buyuk Britaniyadagi sanoat inqilobi ro'y bergan Manchester shahri hisoblanadi. Chikago, Kyoln, Essen, Nyu-York, Peterburg, Amsterdam, London, Parij kabi shaharlar sanoat ishlab chiqarish asosida jadal rivojlana boshlagan. Sanoat shaharlari XIX asrda shaharlarning rivojlanayotgan aholisiga ko'rsatilayotgan urbanistik xizmatlar va infrastrukturasi ulkan zarba bo'lib qo'shildi³.

¹ A.S. Soliyev, K.S. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva. "Shaharlar geografiyasi". Toshkent. 2018-yil.

² A.S. Soliyev, K.S. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva. "Shaharlar geografiyasi". Toshkent. 2018-yil.

³ A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva, "Shaharlar geografiyasi" Toshkent. 2018-yil.



4. Postindustrial shaharlar (1970-yillardan hozirgi kunga qadar). Fan-texnika inqilobi natijasida, sanoat yetakchilik qilgan holda, shaharlarning ilm-fan, texnik-iqtisodiy, moylaviy, siyosiy-madaniy vazifalari ortib bordi. Ular ko'p funksiyali shaharlarga aylanib, murakkab shahar tizimlarini shahar aglometsiyalari, megapolislar shakllandi. Bu davrda jahon miqiyosida globallashuv jarayoning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lib, xalqaro ish yuritish, moliya-kredit, iqtisodiy-madaniy, savdo, siyosiy-tashkiliy funksiyalar shaharlar rivojlanishining asosini tashkil etdi. Bunday vazifalar takomillashib borishi natijasida xalqaro miqiyosda ish bajaruvchi "dunyo shaharlarini", vujudga keltirdi⁴.

Iqtisodiy asos deindustrializatsiya va tetiarizatsiyada namoyon bo'ladi. Ish bilan ta'minlash Fordism⁵ tizimidagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda aks etadi. Bular;

Global iqtisodiy tizimga chuqur integratsiya.

Urbanistik shakllarni qayta tarkib topishini qamrab olgan.

Shaharlar haqida gap ketar ekan quydagi ma'lumotlarni bilib olish foydadan holi bo'lmaydi. BMT tadqiqotlarida xalqaro miqiyosda aholi soni 20 mingdan, milliy miqiyosda esa 5 mingdan kam bo'lmagan aholi manzilgohini shahar deb hisoblash qabul qilingan. Shunday shaharlar ham borki, ular davlat ham hisoblanadi va **shahar davlatlar deyiladi**. Masalan, Vatikan, Singapur, San-Marino. Hozirda Rossiyada 12 ming, AQSH da 2,5 ming, Islandiyada 200 kishi, O'zbekistonda 7 ming, Turkmanistonda 5 ming kishi bo'lgan aholi manzilgohlari **shahar** deb yuritiladi. O'zbekistonda qadimda poytaxtlar, yirik ma'muriy va diniy markazlar, savdo-sotiq markazlari shahar deb yuritilgan va miqdoriy ko'rsatkichlar asos qilib olingan⁶. Boshqaruv (ma'muriy) nuqtayi nazaridan shahar aholi manzilgohlari respublikaga, viloyatga va tumanga bo'ysinuvchi shaharlarga ajraladi⁷.

Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlarga aholi soni 500 mingdan ortiq bo'lgan yirik ma'muriy, iqtisodiy, madaniy markazlar kiradi. Odatda bunday shaharlar qatoriga poytaxt shaharlar, millioner shaharlar, muhim iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar kiradi. Masalan, O'zbekistonda Toshkent shahri, Qozog'istondagi Almati, Astana shaharlari shular jumlasidan.

Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar aholi soni 30 mingdan kam bo'lmagan, muhim sanoat ahamiyatga ega bo'lgan, iqtisodiy va madaniy markazlardir. Ba'zan, aholisi 30 mingga yetmasada, aholi soni jadal o'sayotgan, alohida sanoat, madaniy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar ham ushbu toifaga kiritiladi. Bugun Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlari, ulardan tashqari Kattaqo'rg'on, Chirchiq, Taxiotosh, Kogon kabi yirik shaharlar kiradi. O'zbekistonda ularning soni hozirda 23 ta.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar jumlasiga sanoat korxonalari, uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalar, savdo shahobchalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat obyektlariga ega bo'lgan, aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan, aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan sohalarida band bo'lgan shaharlar kiradi. Shaharchalar ham shahar aholi manzilgohlari qatoriga kiradi. Shaharcha sanoat korxonalari, kommunal xo'jalik, qurilish, temir yo'l stansiyalar hududida joylashgan, aholi soni 2 mingdan kam bo'lmagan va ular oila a'zolarining 2/3 qismi noqishloq xo'jalik sohalarida band bo'lgan aholi manzilgohlaridir. Ba'zi hollarda, alohida ahamiyatga ega bo'lgan sanoat korxonasi, davolash yoki dam olish muassasasi bo'lgan, qulay ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan, aholisi 2 mingga yetmagan aholi manzilgohlari ham shaharcha deb yuritilishi mumkin.

⁴ A.S.Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva, "Shaharlar geografiyasi". Toshkent, 2018-yil.

⁵ Gerni Ford nomi va faoliyati bilan bog'liq bo'lib, XX asrdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi yo'nalishlaridan biri.

⁶ Urbanizatsiya va shahar rivojlanishi muammolari. Kichik qo'llanma. Toshkent. Fan nashiriyoti. 2020-yil.

⁷ O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi. Toshkent. 2002-yil.



Respublikamizda shahar hududidan foydalanish, qurilish ishlarini olib borish, chegaralarni belgilash O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksida belgilangan tartib-qoidalar orqali amalga oshiriladi⁸. Shaharlarning rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya jarayoni natijasida iqtisodiy faoliyat kengayadi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi hamda aholining turmush darajasi o'zgaradi. Biroq shaharlarning tez sur'atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda turli ijtimoiy muammolar ham paydo bo'lishi mumkin. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda shaharlar jamiyat taraqqiyotining muhim markazlari sifatida qaraydi. Ijtimoiy fanlarda, shaharlarda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik, migratsiya, jinoyatchilik, ekologik muammolar va ijtimoiy begonalashuv kabi holatlar bilan izohlanadi. Xoriji sotsiologlar va tadqiqotchilar ijtimoiy muammolarni urbanizatsiya jarayonining tabiiy oqibati sifatida talqin qiladilar. Jumladan, **sotsiolog Louis Wirth** shahar hayotini ya'ni "urbanizm" tushunchasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, shaharlarning asosiy xususiyatlari aholi sonining ko'pligi, yuqori zichlik va ijtimoiy guruhlarning xilma-xilligidir. Bu omillar odamlar o'rtasidagi an'anaviy ijtimoiy aloqalarni zayiflashishiga, oilaviy va mahalliy munosabatlarni kamayishiga hamda jamiyatda individualizm kuchayishiga olib kelishi mumkin. Natijada ijtimoiy begonalashuv, ishonchsizlik va ijtimoiy muammolar paydo bo'lishi haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Shahar ijtimoiy muammolarini o'rganishda **Chikago sotsiologiya maktabi** vakillari ham muhim ilmiy qarashlarini ilgari suradilar. **Robert Park** shaharlarni murakkab ijtimoiy tizim sifatida tavsiflab, unda turli guruhlar o'rtasida resurslar va hudud uchun raqobat mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, shahar hududlarida yer, ish o'rinlari va iqtisodiy imkoniyatlari uchun raqobat ijtimoiy tabaqalanish va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirishi mukiin deb fikr yuritadi. Shuningdek, **sotsiolog Emile Durkheim** jamiyat rivojlanishida aholi soni va ijtimoiy aloqalar rivojlanishida aholi soni va ijtimoiy aloqalar sonining ortishi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. U "dinamik zichlik" tushunchasi orqali jamiyat murakkablashgan sari mehnat taqsimoti kuchayishini va odamlar o'zaro ko'proq bog'liq bo'lib borishini izohlaydi. Biroq bu jarayon ba'zan ijtimoiy me'yorlarning zaiflashishiga va jamiyatda tartibsizlikka olib kelishi mumkin. Shaharlarda ijtimoiy muammolarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchidan, demografik omillar muhim rol o'ynaydi. Aholining tez o'sishi va migratsiya jarayonlari shahar infratuzilmasiga katta bosim o'tkazadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Ish o'rinlarining yetishmasligi yoki iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.


Uchinchidan, ijtimoiy va madaniy omillar ham shaharlardagi ijtimoiy muammolarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Turli madaniyat va ijtimoiy guruhlarning bir hududda yashashi ba'zi ijtimoiy ziddiyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuni aytib o'tish o'rinliki, xorijiy tadqiqotchilarning qarashlariga ko'ra, shaharlardagi ijtimoiy muammolar urbanizatsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Farg'ona viloyati toshloq tumani misolida ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqamiz. Toshloq tunamining demografik holati shu yil misolida raqamlarda ko'rsatilgan.

⁸ A.S.Soliyev, S.K.Tashtayeva, M.M.Egamberdiyeva. "Shaharlar geografiyasi" Toshkent. 2018-yil.





Tumanda sug'oram dehqonchilik rivojlangan (irrigatsiya tizimlari orqali). Toshloq tumani, unumdor tuproqlarga ega. Iqlimi, kontinental (yozi issiq, qishi nisbatan yumshoq. Sug'orish tizimi rivojlangan. Toshloq tumani, tarixan sug'orma dehqonchilik asosida shakllangan, hozirgi kunda esa agrar-iqtisodiy hudud sifatida rivojlanib borayotgan tumanlar qatoriga kiradi deb ayta olamiz. Tuman rivoji tabiiy resurslar, irrigatsiya tizimi va mehnatkash aholiga ega tuman. Kichik biznes uchun ham imkoniyatlar yaratilgan. Talabgorlar o'zlarining biznes rejalari asosida o'z ishlarini tashkil etishlari mumkin bo'ladi. Bunday vaziyatlar uchun imkoniyat va sharoitlar mavjud.

Toshloq tumani, Farg'ona viloyatining markaziy qismida joylashgan agrar-iqtisodiy hudud bo'lib, uning rivojlanishi tabiiy-geografik sharoitlar, irrigatsiya tizimi va tarixiy omillar bilan chambarchas bog'liq.

“Toshloq”, nomi “tosh” so‘zidan o‘zakdan anglashiladigan predmet, narsaning mo‘lligini, ko‘pligini bildiradigan o‘rin-joy ot yasovchi “loq” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Toshloq – toshli, toshi ko‘p, sertosh yerlarda vujudga kelgan, tashkil topgan qishloq yoki hudud ma’nosini ifoda qiladi. Toshloq nomi bilan ataluvchi joy nomlari yurtimizda oz emas. Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa, Izboskan, Andijon, Jalolquduq, Baliqchi shuningdek Namangan viloyatining Uychi, Yangiqo‘rg‘on, Norin, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on va Quyi Chirchiq tumanlarida Toshloq nomida qishloq va mahallalar mavjud⁹.

Ayrim mahallalar haqida to‘xtalib o‘tsak, ba’zi mahallalarda mashhur va ziyoli insonlar ham yetishib chiqqanlar. Bunda insonlardan biri, Madaminbek. Bolalik kezlrimizda “Favqulodda komissar” filmi orqali O‘zbekiston xalq artisti Hamza Umarob 1926-1987-yil. Ijrosidagi, Madaminbek obrazi bilan tanishgan bo‘lsakda biroq sharqona harbiy ilimning bilimdoni, mohir

⁹N.Oxunov. “Joy nomlari ta’biri” O‘zbekiston. 2016-yil. Qayta nashir.



sarkarda Madaminbek to'g'risidagi asl xaqiqatdan faqat mustaqillikka erishganimizdan so'ng voqib bo'la boshladik.

O'rta asrning 90-yillarining o'rtalari edi. Farg'ona viloyati o'lkashunoslik muzeyiga Yaponiyaning Osaka shahridagi etnologiya muzeyining ilmiy xodimi Chiko Obiya xonim tashrif buyurdi. Bir necha muddat viloyatimizning tarixiy yodgorliklari bilan tanishib chiqish davomida, Madaminbek va Shermuhammadbeklarning hayoti va faoliyatiga ham e'tiborini qaratdi. Chunki uning tadqiqot mavzusi aynan 20-yillaridagi Farg'ona vodiysida yuz bergan milliy ozodlik harakatlari bilan ham bevosita bog'liq edi. Shu asnoda, muzeyning ilmiy xodimi sifatida yaponiyaliklar bilan Madaminbek hayotiga oid ma'lumotlarni o'rganish maqsadida muzey fondidagi ilmiy materiyallarni birma-bir ko'zdan kechirilgan edi. Ayniqsa, Marg'ilon shahri hamda Toshloq, Zhyovon tumanlarida bo'lib, Madaminbek va Shermuhammadbekni yaqindan bilgan xonadonlarda mazmunli suhbatlar bo'lib o'tdi¹⁰. Ma'lumotlarga ko'ra, 1892-yil Madaminbek, nasabi beklardan bo'lgan Ahmadbek xonadonida tavallud topgan. Ibrohim Karimiy yozishicha, Ahmadbekoilasi bilan, So'kchilik mahallasida keng hovlili uyda yashagan. Va asosan yog'och qoshiq, cho'mich yasab ularni sotib oilasini tebratgan. Aytishlaricha, Madaminbek bolaligidan sho'x biroq, Qur'oni Karimni yaxshi yodlab, chiroyli tilovat qilgani uchun uni ba'zan Qori bola deb ham chaqirishgan. Mumtoz adabiyotlar, jangnoma kitoblar Madaminbekning joni-dili bo'lgan. Ko'p kitob o'qishi va harbiy ta'imdan habardorligi va teran fikrlay olishi tufayli xalq e'tiboriga tushgan¹¹.

Har bir huquq o'zining qadiryatlari, insonlari, sharoiti va boshqa yo'nalishlari bilan farq qiladi. Bularni inobatga olgan holda harakat fikr yurutsak Toshloq tumanining o'ziga xos qarashlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Toshloq tumani Farg'ona viloyatining agrar hududlaridan biri hisoblanadi. Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgani uchun tabiiy-geografik jihatdan qulay sanaladi. tuprog'i unimdor bo'lib, sug'orish tizimlari orqali samarali foydalanilmoqda. Qishloq xo'jaligida ustun yo'nalishlarda paxta, g'alla va sabzavod yetishtiriladi. Fermer xo'jaliklari rivojlangan, kichik korxonalar mavjud, kichik biznes va savdo rivojlangan deb ayta olamiz. Iqtisodiy rivojlanish haqida gap ketganda, hali ko'proq **diversifikatsiya** talab qiladi. Ta'lim sohasi ham rivojlanib bormoqda. Tumanda davlat maktablaridan tashqari Xususiy "Boburiylar" maktabi ham faoliyat yurutmoqda. Hozirgi kunda bu maktab o'quvchi, yoshlari ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Tibbiyot tizimi ham anchayin yuksaldi. Yangi tibbiyot birlashmalari ochildi, tibbiy yordamga muhtoj aholiga xizmat qilish sifati ham oshib bormoqda. Shuningdek, tibbiyot xodimlari salohiyati ham yuksaldi. Xususiy diagnostik markazlar o'z ishini davom ettirmoqda tuman miqiyosida. Ona va bola salomatligini saqlash bolalar uchun tez yordam ko'rsatish tizimiga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Toshloq tumanida, ijtimoiy soha aholining turmush darajasi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan muhim tizim hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgani kabi, ta'lim muassasalari maktab, bog'chalar, tibbiyot tizimi, ijtimoiy himoya xizmatlari uy-joy va kommunal xizmatlar tizimlarida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi uchun ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi, ularning farovon hayot kechirishlari uchun zamin yaratishi mumkin bo'ladi. Toshloq tumanida, aholiga xizmat ko'rsatish uchun zamonaviy "Inson markazi" va "Davlat xizmatlari markazi" "Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik markazi" va "Oila va xotin-qizlar markazi" o'z faoliyatini olib bormoqda. Davlat xizmatlari markazida bugungi kunda, Pasport, kadastr, turli xizmatlar uchun ro'yxatdan o'tish ishlarida aholiga amaliy yordam ko'rsatmoqda. Bu holatda hujjatlar tez va qulay rasmiylashtirilmoqda. Maxsus mutaxassislar yordamida aholiga manzilliy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Bandlik markazlarida, aholini ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga yo'naltirish, ishsizlarni ro'yxatga olish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Ish talabida bo'lgan

¹⁰ N.Bbdulohatov. I.To'xtaboyev. "Toshloq tarixidan lavhalar". Yangi asr avlodi". 2011yil.

¹¹ N.Abdulohatov. I.To'xtaboyev. "Toshloq tarixidan lavhalar". Yangi asr avlodi". 2011yil.



fuqarolar uchun bunda xizmatlar juda muhim sanaladi. Bandalik masalasi har bir viloyatlar uchun eng muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday markazlarning amaliy ish ko'lamini kerak bo'ladi. Ishga kerak bo'lgan fuqarolarga ish topish orqali ularning ijtimoiy holatlarini yaxshilashga yordam berilmoqda. Oila va xotin-qizlar markazi ham alohida bir mavzu bo'la oladi. Bunday markzalarda yordamga muhtoj ayollar va qizlar uchun yordam qo'li uzatiladi. Bu markazga Inson markazlari ham yordam berib birgalikda amaliy ishlarni olib bormoqdalar. Bu bo'limda ayollarni qo'llab –quvvatlash ularni kasb-hunarga o'qitish tizimini hamqamrab oladi. Shuningdek, oilaviy muammolarni hal etishda va psixologik yordam ko'rsatish tizimini qamrab oladi. Inson markazlari esa alohida bir muhim mavzu deb ayta olamiz. 2024-yil Toshloq tumani markazida ochilgan bu Inson markazi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolari bilan ish olib boradi. Bugungi kunda mahalladagi ijtimoiy ish mutaxassislari va inson markazdagi mutaxassislar ko'magida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarga yordam ko'rsatilmoqda. Bu esa ijtimoiy o'zgarishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir yordam olgan fuqaroning hayot tarzi o'zgaradi. Inson omiliga manziliy yordam ko'rsatiladi. Bu esa albatta ijobiy jarayonlarga sabab bo'ladi. Insonlarga yordam berish amaliy jarayon bo'lib bunda mutaxassisning to'g'ri reja asnosida ish olib borishi eng muhimi hisoblanadi. Shuningdek, manzilliy yordam ko'rsatish ham juda kerakli. Sababi, kerakli yordam kerakli vaqtda ko'rsatilgandagina insonga yordam bera oladi. Bu mohiyatga e'tibor bersak Inson markazlari va xizmatlar ko'lamini juda o'rinli ishlab chiqilgan deb ayta olaman. Bundan tashqari tumanda bitta "Oilaviy bolalar uyi" mavjud, bugungi kunda 6 nafar bolalar bu uyda tutungan ota-onalari bilan yashab kelmoqdalar. Barcha bolalarga manzilliy yordam ko'rsatilib kelinmoqda. Inson markazlari maxsus shobalari tomonidan bolalarni nazorat qilish tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek ularning tarbiyaviy va ruhan sog'lom bo'lishlari uchun ham turf axil madaniy tadbirlarga jalb etish ishlari ham amalga oshiriladi. Har bir holatlari o'rganiladi. Ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganiladi. Umumiy olganda, monitoring ishlari tizimli amalga oshiriladi. Oilalar bilan suhbatlar tashkil etiladi. Ularni qabul qilgan, ota-onalardan qanday muammolar bo'layotgan bo'lsa, muammolarni hal qilish uchun ish rejalarini tuzib chiqiladi. Bu ham bolalarning ijtimoiy himoyasi uchun ularning kella-jak hayotlari uchun juda ham muhim deb ayta olaman. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy himoya tizimida ham yaxshigina yutuqlarga erishmoqda, Toshloq tumani ham. Mahallabay, xonadonabay tizimlari inson omili uchun xizmat qilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasida ham bir qator yutuqlar mavjud. Xususiy shifoxonalar faoliyat yuritmoqda, turli kasalliklar uchun shifo choralari topilmoqda.

Tavsiya va xulosalar

Zamonaviy jamiyat rivojlanishi jarayonida ijtimoiy muammolar tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda, aholining turmush darajasi, ijtimoiy himoyasi va ma'naviy-axloqiy muhit bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu yuzdan, ijtimoiy muammolarni o'rganish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ijtimoiy muammolar jamiyatda mavjud bo'lgan va insonlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar bo'lib, ular qatorida keltirib o'tgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologiy, ma'naviy sohadagi muammolar kiradi. Bu holatning barchasi siyosiy o'ylanagan yechimlarni talab etadi. Ya'ni davlat miqyosidagi yechimlarni. Ijtimoiy yechimlarni ishlab chiqish, ijtimoiy tafovutlarni oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun muhim sanaladi. Mazkur masalalarni hududlar kesimida o'rganish juda ahamiyatli. Har bir shahar va tumanning o'ziga oid muammolari mavjud bo'ladi. Ularni tahlil qilish orqali, tumanning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va imkoniyatlaridan foydalanish rejalarini tuzib chiqsa ham bo'ladi. Toshloq tumani hududida ijtimoiy muammolar umumiy va o'zaro bir –biriga bog'liq holda nomoyon bo'lmoqda. Xususan, ishsizlik, iqtisodiy qiyinchiliklar, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar, ekologiy muammolar hamda aholi turmush darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu masalalarni yuqorida ham ko'rib chiqdik. Ayniqsa, yoshlar bandligi va oilaviy muammolarni tartibga solish juda muhim sanaladi. Bunday



masalalar kelajakdagi rivojlanishga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammolarning yuzaga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar, globallashuv jarayonlari hamda zamonaviy texnologiyalar ham ta'siri muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, hududda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ularni yanada kuchaytirish va tizimli ravishda olib borish zarur. E'tiborli jihati shundaki, umumiy muammolarni samarali hal etish uchun kompleks va uzoq muddatli strategiya talab etiladi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida quydagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin;

1. Iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga oid takliflar:

Yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishga e'tibor qaratish. Tizimli ishlarni izchillik bilan olib borish.

Bozor tizimida tartibli o'zgarishlarni amalga oshirish. Bozor hududida sotuv rastalarni ko'paytirish va bu rastalarni tartibga keltirish. Bozor hududini rejalashtirish va sektorlarga ajratish. Bu jarayon ichki harakat yo'llarini kengayishiga olib keladi. Shuningdek ba'zi sotuvchilar mahsulot natxlarini sun'iy ravishda oshirishlari ko'zga tashlanadi. Narxlarni nazorat qiluvchi tizimni kuchaytirish. Bozorlarda elektron tizimining yetarli emasligi ham yechimini kutmoqda. Har bir xizmat ko'rsatish joylarida terminalar bo'lishini ta'minlash juda muhim.

2. Sog'lini saqlash tizimini rivojlantirishga oid takliflar:

Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, yosh kadrlarga imkoniytlar berish. Shuning bilan birga, oilalardagi nogironligi bor shaxslar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish. Ularni o'z kuchlari va imkoniyatlaridan foydalana olishlariga yo'naltirish juda muhim. Bu yo'nalishda, maxsus mavzularni tanlab olib tumanda joylashgan "Inson markazlarida", seminarlar tashkil etish kerak.

3. Ekologik muhitni muhofaza qilishga oid takliflar;

Yashil maydonlarni tartibli shaklda ko'paytirish zarur. Ekologik toza yoqilg'idan foydalanishni rag'batlantirish kerak. Fuqarolar uchun madaniy maskan tashkil etish juda muhim. Buni ko'plab fuqarolar istamoqdalar. Toza ichimlik suviga ega bo'lish uchun ichimlik suvini nazorat qilish va tozalash inshootlarini yaxshilash juda muhim takliflarimdan biri. Maktablarda ham yoshlar orasida, ekologik madaniyatni oshirish bo'yicha "yashil hududlar" tashkil etish kerak.

4. Ijtimoiy himoyani kengaytirishga oid takliflar:

Ijtimoiy sohani tarmoqlari ko'lami keng. Ya'ni oila, maktab ta'limi, notinch oilalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, vasiylik va homiylikka berilgan bolalarni nazorat qilish, yoshlar o'rtasida qonun buzilish holatlarini oldini olish uchun ham tizimli takliflar kerak bo'lmoqda. Bundan tashqari kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashda manzilli yordamlarni tashkil etish zarur. Oilaviy qadryatlarni saqlab qolish va oila mustahkamligini asrash uchun ham ishlar qilinishi kerak. Yoshlarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish uchun ularni yo'naltira oladigan seminarlar tashkil etish o'rinli. Seminarlarda hayot tajribasiga ega, o'z maqsadlarini to'g'ri qo'ya olgan insonlar taklif etiladi. Bu albatta yoshlar uchun motivatsiya bo'la oladi. Sport bilan shug'ullanishni kuchaytirish. Oilalardagi nizolarni kamaytirish, yosh oilalar uchun ma'noli va mazmunli ma'ruzalarni tashkil etish samara beruvchi yo'llardan deb ayta olaman. Tumnda yashovchi insonlarni dunyoqarashlarini yanada kuchaytirish uchun kitob do'konlarini ko'paytirish zarur deb o'ylayman. Toshloq tumani kutubxonasi fondini ham ko'plab kitoblar bilan boyitish zarur deb hisoblayman. Eng muhim masalalardan yana biri bu ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar va vasiylikka va homiylikka olingan bolalarni nazorat qilish tizimini o'zgartirish zarur. Nazorat tizimi bunday bolalar uchun uzluksiz bo'lishi tushunarli, lekin nazoat deganda ularga ishonchsizlik ko'zi bilan qarab yuzaki munosabat bo'lmasligi kerak. Bunday yoshlar va bolalar uchun hayotda yashash qoidalarini o'rgatish zarur. Ularni mustaqil hayotga tarbiyalash keying hayotiy jarayonlari uchun kerakli omillardan biri sanaladi. Bunday



bolalarga ko'p hollarda umumiy rag'batlantirish tizimi bilan yordam beriladi. Ularni fikrlashga, harakat qilishga undash deyarli mutaxassislar tomonidan ko'rsatilmaydi. Bularni e'tiborga olish zarur. Qarovsiz qolgan va ota-onasiz qolgan bolalar, yoshlar bilan ishlashda individual ishlash yo'nalishlari ham kerak. Ularni o'zlari istagan kasbga yo'naltirish, til kurslariga jalb qilish va hayot saboqlarini berish. Keying oilaviy holatlarida ham ularga yordam bo'la oladi. Aynan bunday yoshlar bilan, 2024-yil, mart oyida seminar olin borganman. Shunda bu usuldan kengroq foydalanish kerakligini sezgan edim. Har oyda bir marotaba bo'lsa ham bunday seminarlarni tashkil etish, yoshlar uchun samarali bo'la oladi. 16-18 yoshdan boshlab yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni o'rgatish, maqsadlari yo'lida to'g'ri harakat qilish kabi vazifalarni o'rgatilishi yaxshi natija beradi deb ayta olaman. Kasibga o'qitish va o'zlari istagan ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olishlarini tashkil etish orqali ularni daromadli shaxslar qatoriga kirgiza olamiz. Bu amaliy jarayonlar yoshlarning hayot sifatini barqaror bo'lishini ta'minlaydi deb ayta olaman.

Xulosa: Rivojlanayotgan barcha davlatlarda yoki shaharlarda albatta ijtimoiy muammolar mavjud bo'ladi. Bunday muammolarni yo'q qilib bo'lmaydi lekin yengillashtirish mumkin. Globallashuv jarayonida muammolar ortishi ayni haqiqat. Zamonaviy shaharlar insoniyat taraqqiyotining eng muhim markazlari sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan bir qatorda, shahar muhitida turli ijtimoiy muammolar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Ushbu muammolar inson hayotining barcha jabhalariga uning turmush darajasi, sog'ligi, ruhiy holati va kelajakka bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaharlarning ijtimoiy muammolari ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ishsizlik, kambag'allik, uy-joy muammosi, ta'lim va sog'liqni saqlash hamda ma'naviy-axloqiy inqirozlar jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, aholi sonining ortib borishi va resurslarning cheklanganligi ushbu muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va globallashuv jarayonlari insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Insonlar o'zaro yaqin bo'lib yashasalar-da, ruhiy jihatdan bir-biridan uzoqlashib bormoqdalar. Bu esa yolg'izlik, befarqlik, va ijtimoiy ajralish kabi yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida maqsadsizlik, qadiryatlarga nisbatan befarqlik va hayotga loqaydlik kabi holatlar ko'zga tashlanmoqda. Ijtimoiy muammolar faqat iqtisodiy yetishmovchilik natijasi emas, balki insoniy qadiryatlarning susayishi, ijtimoiy adolatning buzilishi va tarbiya tizimidagi kamchiliklar bilan ham bog'liq deb ayta olaman. **Agar jamiyatda adolat, mehr-oqibat va o'zaro hurmat kabi qadriyatlar zaiflashsa, har qanday rivojlanish barqaror bo'la olmaydi.** Shu nuqtai nazardan qaraganda, shaharlarning kelajagi faqat infratuzilma yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, inson omiliga uning tarbiyasi, dunyoqarashi va ma'naviy darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy choralarni uyg'unlashtirish zarur. Eng muhimi, har bir inson jamiyatning bir qismi ekanligini anglab, atrof-muhitga, boshqa odamlarga va o'z kelajagiga mas'uliyat bilan yondashish lozim. Chunki jamiyatni o'zgartirish bu faqat davlatning emas, balki har bir fuqaroning vazifasi sanaladi. Buni ongli ravishda anglab yetish zarur.

Mazkur umumiy ijtimoiy muammolar Toshloq tumani misolida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hududda aholi bandligini ta'minlash, yoshlar o'rtasida ma'naviy tarbiyani kuchaytirish, ekologik muammolarni kamaytirish, ta'lim va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yechim topilmagan ijtimoiy muammolar jamiyat rivojiga ma'lum darjada to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, Toshloq tumanidagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish uchun mahalliy boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari va jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini oshirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish hamda ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar



hududning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu jarayonda Toshloq tumani kabi hududlarda amalga oshirilayotgan ishlohatlar va ijtimoiy tashabbuslar, takliflar muhim o'rin tutadi deb ayta olaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. Normativ- huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil.
2. Oila kodeksi. 1998-yil.
3. Mehnat kodeksi. Yngi tahrir. 2023-yil.
4. Yangi O'zbekiston Taraqqiyoti strategiyasi.

II. Ilmiy va rasmiy adabiyotlar.

5. A. Soliyev. M. M. Egamberdiyeva. "Shaharlar geografiyasi" Farg'ona viloyatining shakllanishi. Toshkent. 2018-yil.
6. K. Abdullayev. "Ijtimoiy muammolar va ularning yechimlari" Toshkent. 2022-yil.
7. X. S. Oripova "Farg'ona tarixi" Toshkent. 2022-yil.
8. B. S. Yo'ldashev. "Ilk o'rta asrlarda Farg'ona vodiysining iqtisodiy hayoti" 2023-yil.
9. A. A. Nishoniv "Farg'ona vodiysiga oid manbalar tahlili" Gumanitar fanlar va ta'lim taraqqiyoti jurnali. 2022-yil.
10. A. A. Nishonov. "XVI asr Farg'ona vodiysi tarixiga oid manbalar tahlili". Toshkent. 2022-yil.
11. N. Abdulahatov, I. To'xtaboyev. "Toshloq tarixidan lavhalar". Yangi asr avlodi. 2011-yil.
12. A. Giddens. "Sotsiologiya". Toshkent. 2002-yil.
13. E. Durgeyim. "Jmayatda mehnat taqsimoti" Toshkent. 2004-yil.
14. P. Sorokin. "Shaharlarda ijtimoiy va madaniy dimanika" Toshkent. 2010-yil.

III. Internet va rasmiy manbalar.

15. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. <https://stat.uz>

Izoh: Mazkur maqolani tayyorlashda normativ-huquqiy ma'lumotlar, davlat dasturlari, ilmiy adabiyotlar va rasmiy statistik manbalardan foydalanildi.

